

«Start» tarif rejasi!

“Start” tarif rejasiga yangi ulanish va boshqa tariflardan o‘tish imkoni yo‘q.

Narxlash

Abonent to‘lovi, oyiga	20 000 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi daqiqalar limiti, oyiga	100
Internet-trafik limiti, oyiga	1 000 MB
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS limiti, oyiga	100
Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash:	
O‘zbekiston bo‘yicha qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi (berilgan limitdan tashqari)	10 so‘m
1 MB internet narxi (berilgan limitdan tashqari)	10 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi	10 so‘m
Xalqaro SMS narxi	1500 so‘m

Limitlar qoldig‘ini tekshirish: *100# - daqiqalar, SMS va internet-trafik MBlari.

2026-yil 9-apreldan boshlab «Start» tarif rejasining abonent to‘lovi oyiga 20 000 so‘mni tashkil etadi. Bunda, o‘zgarish kiritilgan sanadagi 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar uchun abonent to‘lovi 15 000 so‘m miqdorida saqlanib qoladi.

Eslatma

Smartfonlar, standart holatda, mobil trafikni quyidagilarga fon rejimida sarflaydi: tizim va ilovalarni yangilashga; vidjetlar (ob-havo, kalendar va boshqalar) va ijtimoiy tarmoqlar ma‘lumotlarini sinxronlashga, hamda analitik-hisoblagichlarga (Google, google-analytics.com, googletagmanager.com, gstatic.com, stats.g.doubleclick.net). Ushbu holatlarda trafik tarif rejasidagi Ucell-Internet narxiga muvofiq narxlanadi, yoki trafik barcha yo‘nalishlar uchun taqdim etiladigan internet-to‘plamdan sarflanadi.

Tarif rejasining shartlari

- «Start» tarif rejasiga yangi ulanish va boshqa tariflardan o‘tish imkoni yo‘q.
- Oylik abonent to‘lovining yechilishi va limitlarning belgilanishi:
 - Abonentning tarif rejasiga ulanish/o‘tish sanasi oylik davrda oylik abonent to‘lovining yechilish sanasi hisoblanadi.
 - Tarif rejasiga yangi ulanishda/o‘tishda, agar abonent hisobida yetarlicha mablag‘ bo‘lsa, oylik abonent to‘lovi va limitlar to‘liq hajmda (qolgan kunlar uchungina emas) yechiladi va belgilanadi.
 - Hisob manfiy holatda bo‘lsa yoki unda tarif bo‘yicha oylik abonent to‘lovining yechilishi uchun mablag‘ yetarli bo‘lmasa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi, tarifda belgilangan limitlar belgilanmaydi, abonent raqamining hisobi qarzga kirmaydi.
 - Oylik abonent to‘lovi tarif rejasi bo‘yicha oylik abonent to‘lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to‘lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovining so‘nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi.
 - Tarif rejasi doirasida navbatdagi oylik abonent to‘lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi soat 00:00 dan 08:00 gacha bo‘lgan davrda (yechilish vaqti qat‘iy belgilanmagan) amalga oshadi. Oylik abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun abonent hisobida yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lishi kerak.
 - Agar oylik abonent to‘lovining yechilish paytida abonent hisobida oylik abonent to‘lovi qiymatidan kam mablag‘ qolgan bo‘lsa, u holda abonent raqami bloklanadi. Toki hisobda abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lmagunicha abonent to‘lovi yechilmaydi.
 - Abonent hisobi abonent to‘lovining to‘liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to‘ldirilishi bilan oylik abonent to‘lovi **darhol** yechiladi. Abonent to‘lovi yechilishi bilan abonent raqami Faol holatga o‘tadi va tarif rejasi shartlariga muvofiq limitlar belgilanadi. Keyin oylik abonent to‘lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi, ya‘ni, tarif rejasi bo‘yicha

navbatdagi oylik abonent to'lovining yechilishi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi **so'nggi marta samarali yechilgan kundan boshlab** bir oylik oraliqda amalga oshadi.

- Oylik abonent to'lovi tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilgan kundan boshlab oyiga bir martalik oraliqda yechiladi. Oylik abonent to'lovining navbatdagi yechilish sanasi tarif rejasi bo'yicha abonent to'lovining so'nggi marta samarali yechilgan kuni hisoblanadi (agar oylik abonent to'lovining yechilishi 31-sanada amalga oshgan bo'lsa, keyingi oy esa 30 kunlik bo'lsa, u holda navbatdagi oylik abonent to'lovi 30-sanada, fevral oyining 28/29-sanasida yechiladi. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi o'z vaqtida to'lansa (raqam uzluksiz Faol holatda bo'lib tursa), abonent to'lovining keyingi yechilish sanasi oyning 31-kuni bo'ladi).

3. Bloklanish shartlari:

- Raqam musbat hisob holatida, agar tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovi yechilishi paytida hisobda yetarlicha mablag' bo'lmasa, shuningdek manfiy hisob holatida, agar tegishli qo'shimcha xizmatlar ulangan bo'lsa bloklanadi;
- Bloklangan holatda tarif rejasini almashtirish imkoni bo'lmaydi;
- Agar abonent hisobida boshqa ochiq tarif rejasining abonent to'lovini + o'tish qiymatini (agar tarif rejasiga o'tish pullik bo'lsa) yechishga yetarli mablag' bo'lsa, tarif rejasini ruxsat etilgan barcha usullar orqali almashtirish mumkin.
- Bloklangan holatda abonent oldin xarid qilingan oylik internet-to'plamlar limitlarining qoldiqlaridan, toki ularning amal qilish muddati tugaguniga qadar foydalana oladi (qoldiq mavjud bo'lsa);
- Bloklangan holatda bo'lishning umumiy shartlari bilan [bu yerda](#) tanishish mumkin.

4. Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar joriy davr uchun tarif bo'yicha oylik abonent to'lovi samarali yechilganidan keyingina belgilanadi. Tarif rejasi doirasida taqdim etilgan oylik limitlarning amal qilish muddati belgilangan vaqtdan boshlab 1 oyni tashkil etadi:

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun, albatta oldindan hisobni oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorga to'ldirishni va tarif rejasi bo'yicha limitlar belgilanganligini *100# USSD-so'rovi yordamida tekshirib olishni tavsiya etamiz.
- Tarif rejasi doirasidagi oylik limitlar sarflab tugatilgach, qo'ng'iroqlar va SMSlar tarif rejasi shartlariga ko'ra yo'nalishlar bo'yicha limitdan tashqari qiymatiga muvofiq narxlanadi.
- Tarif rejasi va qo'shimcha internet-to'plamlar doirasidagi oylik internet-trafik limitlari sarflab tugatilgach, internetga kirish imkoni to'xtatiladi. Bu holatda abonent internetni qayta ishga tushirish uchun havolalik SMS oladi. Internetdan foydalanishni davom ettirish uchun, abonent quyidagi opsiyalardan birini tanlashi va unga muvofiq internetdan foydalanishda davom etishi lozim bo'ladi:

- Tarif bo'yicha limitlarni yangilash («Restart» xizmatini faollashtirish);
- Internet-to'plam xarid qilish;
- 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish*

* Agar abonent 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish opsiyasini tanlasa, keyin Oylik internet-to'plam xarid qilsa, u holda qo'shimcha to'plam limitlari tugaganidan so'ng toki tarif bo'yicha abonent to'lovining navbatdagi yechilishiga qadar internet tarif rejasi shartlariga muvofiq 1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha narxlanadi.

«1 MB uchun limitdan tashqari narx bo'yicha mobil internetni faollashtirish» opsiyasini abonent *727# USSD-so'rovi yordamida mustaqil tarzda ham tanlashi mumkin.

Internetga kirish cheklangan holatida to'lov ilovalaridan offline rejimida foydalanmoqchi bo'lsa, ularning to'g'ri ishlashi uchun abonent o'z qurilmasida ma'lumot uzatish rejimini o'chirishi lozim.

E'tibor qiling:

- Tushunmovchiliklarning oldini olish uchun tarif rejasi doirasidagi limitlardan foydalanishdan avval *100#, USSD-so'rovi yoki Ucell mobil ilovasi yordamida limitlar belgilanganligini albatta oldindan tekshirib olishni so'raymiz. Daqiqalar, SMSlar va MBlar limitlari belgilanganiga qadar narxlash limitdan tashqari ko'rsatilgan narxlarda amalga oshiriladi.

5. «Start» tarif rejasi abonentlari uchun «Qadrdonar!» sodiqlik dasturi amal qiladi.

yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin <https://ucell.uz/uz/subscribers/services2/entertainment/tshtt>

6. Tarif rejalar shartlariga ko'ra taqdim etilgan daqiqalar "O'zbektelekom" AKning axborot-ma'lumot xizmatlariga, kontent-provayderlarning axborot-ko'ngilochar xizmatlariga va xalqaro yo'nalishlardagi qo'ng'iroqlarga sarflanmaydi.

6.1. "O'zbektelekom" AK xizmatlari. Narxlash ushbu havoladagi jadvalda ko'rsatilgan narxlar asosida, har bir ulanish uchun amalga oshiriladi: https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom, (limitlar bo'lsa, limitlar sarflanmaydi. Tarif rejasi shartlariga muvofiq limitdan tashqarinarx bo'yicha abonent balansidan yechiladi). Qo'ng'iroqning bir daqiqasi sizning tarif rejangizga muvofiq daqiqalab, ulanishning 1-soniyasidan boshlab, to'liq daqiqagacha yaxlitlanib narxlanadi. Abonentlar bu yerda tanishishlari mumkin https://ucell.uz/ru/services/jsc_uzbektelecom

7. Tarif rejaları doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.

8. «Start» tarif rejasi abonentlari uchun «Sizga qo'ng'iroq qilishdi», «Qulay daqiqalar», «Raqamni saqlab qolish», Oylik internet-to'plamlar, Metroda Ucell cheksiz internet-to'plamlari (faqat «Cheksiz 30 kun» to'plami), «Internet-sovg'a» xizmatlari, «Al Chiroq» aksiyasi amal qiladi.

9. «Start» tarif rejasi abonentlari uchun Kunlik va Haftalik internet-to'plamlar, «Kunlik SMS-to'plamlar» shuningdek, "Qadrdonlar!" sodiqlik dasturi doirasidagi «Kunlik SMS-to'plamlar» xizmati, "Buyurtma to'plam", «Tarmoq ichida qulay» hamda «O'zbekiston bo'yicha qulay» to'plamlari amal qilmaydi.

10. Internet xizmatlaridan foydalanuvchi abonentlarga mablag'larni rezervatsiya qilish tizimi va 4G tarmog'ining ishlash xususiyati haqida qo'shimcha ma'lumot bilan tanishib chiqishni tavsiya qilamiz.

11. Frod ulanishlarning oldini olish maqsadida, agar ulanishdan keyingi 30 kun davomida chiquvchi trafik 0 ga yaqin bo'lsa, Kompaniya abonent bilan Shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

«Restart» xizmati shartlari

1. «Restart» xizmati *222# USSD-so'rovi yordamida faollashtiriladi.

2. «Restart» xizmatidan raqami Faol holatda bo'lgan abonentlar foydalana oladilar.

3. «Restart» xizmati abonentga mustaqil tarzda oylik abonent to'lovining yechilishini tashkillashtirish hamda tarif rejasi shartlari bo'yicha oylik limitlarni olish imkonini taqdim etadi. «Restart» xizmati samarali faollashtirilganidan so'ng abonentning oylik davri mazkur xizmatning so'nggi marta samarali faollashtirish sanasiga muvofiq yangilanadi.

4. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng abonent hisobidan to'liq qiymatda oylik abonent to'lovi yechiladi va abonentning tarif rejasi oylik abonent to'lovi doirasida to'liq oylik limitlar belgilanadi. Keyin, abonentda oylik abonent to'lovi abonentning yangi oylik davriga muvofiq yechiladi.

5. Xizmatni faollashtirish uchun abonent hisobida oylik abonent to'lovining to'liq hajmda yechilishi uchun yetarli miqdorda mablag' bo'lishi lozim. «Restart» xizmatini faollashtirganidan so'ng tarif bo'yicha abonent to'lovi yechiladi va to'liq hajmda limitlar belgilanadi.

6. «Restart» xizmati muvaffaqiyatli faollashganida, tarif rejasi doirasida oldin belgilangan limitlar (O'zbekiston bo'yicha daqiqalar va MBlar) qoldiqlari bekor qilinadi.

7. Tarif rejasi bo'yicha oylik abonent to'lovining yechilish kunida «Restart» xizmatini faollashtirib bo'lmaydi.

8. «Restart» xizmatidan sutkasiga faqat 1 marta (joriy sutkaning boshidan, 00:00 dan 23:59 gacha) foydalanish mumkin.